

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ZAMONAVIY TERMINLARNING
CHOG'ISHTIRMA TAHLILI**

Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi
“UK school of Tashkent” xususiy maktabida o'qituvchi
Email: 250744@newuu.uz
[Tel:+99894-766-10-60](tel:+99894-766-10-60)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21205170>

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi zamonaviy terminshunoslikning qiyosiy-chog'ishtirma tahliliga bag'ishlanadi. Hozirgi globallashuv va sun'iy intellektning uzluksiz o'sib borishi davrida ingliz tiliga yangi tushunchalarning asosiy manbasi sifatida qaralmoqda. Ushbu izlanishning maqsadi yangi terminlarning o'zbek tiliga kirib kelish uslublari, ularning semantik moslashinuvi va morfologik xususiyatlarini ko'rib chiqadi. Tahlillar natijasiga ko'ra, o'zbek tilidagi zamonaviy terminlarning qariyb 60% qismi milliy muqobillarning yo'qligi sababli to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirilib, ommalashmoqda. Muallif to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirish va kalka usullarini tahlil qiladi, xalqaro terminlarning integratsiyalanish jarayonida ularning o'z ma'nosini saqlab qolinishi qanchalik muhimligini ta'kidlaydi. Tadqiqot xulosalari o'zbek tili leksik qatlamining boyish mexanizmlarini tushunishga va yagona terminologik elektron lug'atlarni yaratilish zaruriyatini asoslashga xizmat qiladi.

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительно-сопоставительному анализу современной терминологии на английском и узбекском языках. В эпоху современной глобализации и постоянного развития искусственного интеллекта английский язык рассматривается как основной источник новых концепций. Целью данного исследования является изучение способов проникновения новых терминов в узбекский язык, их семантической адаптации и морфологических особенностей. По результатам анализа, около 60% современных терминов в узбекском языке заимствуются и популяризируются напрямую из-за отсутствия национальных альтернатив. Автор напрямую анализирует методы заимствования и калькирования, подчеркивая, насколько важно сохранение собственного значения международных терминов в процессе их интеграции. Результаты исследования способствуют пониманию механизмов обогащения лексического слоя узбекского языка и обоснованию необходимости создания единых терминологических электронных словарей.

Abstract: This article will be devoted to a comparative analysis of modern terminology in English and Uzbek. In the current era of globalization and the continuous growth of artificial intelligence, the English language is considered as the main source of new concepts. The purpose of this study is to examine the methods by which new terms are introduced into the Uzbek language, their semantic adaptation, and their morphological characteristics. According to the analysis, about 60% of modern terms in the Uzbek language are being directly adopted and popularized due to the lack of national alternatives. The author directly analyzes the methods of assimilation and borrowing, emphasizing how important it is for international terms to retain their meaning during the process of integration. The results of the study contribute to understanding the mechanisms of enrichment of the Uzbek language lexicon and substantiate the need to create unified terminological electronic dictionaries.

Kalit so’zlar: Terminshunoslik, ingliz tili, o’zbek tili, o’zlashmalar, IT-atamalar, lingvistik moslashuv, qiyosiy tahlil, neologizmlar.

Ключевые слова: терминология, английский язык, узбекский язык, заимствования, IT-термины, лингвистическая адаптация, сравнительный анализ, неологизмы.

Key words: terminology, English, Uzbek, borrowings, IT terms, linguistic adaptation, comparative analysis, neologisms.

Kirish. Hozirgi zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanib borish davrida til o’zining muloqot vositasi vazifasi bilan bir qatorda maxsus bilimlarni saqlab, ularni boshqalarga yetkazib berish quroli sifatida ham faoliyat olib bormoqda. Ingliz tilida esa o’zining “lingua franca” nomli maqomiga ega bo’lib, dunyoning deyarli barcha burchaklariga o’zining yangi terminlarini yetkazib bermoqda. O’zbek tili ham tezlikda rivojlanib borayotgan tizim sifatida tashqi resurslar tufayli o’zining leksik zaxirasini to’ldirib bormoqda. Zamonaviy terminlarni o’zbek tilida ma’nosini saqlab qolgan holda to’g’ri o’zlashtirish hozirgi kun tilshunosligining asosiy muammolaridan biri bo’lib qolmoqda[4].

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu ilmiy ishning asosi sifatida qiyosiy tahlil uslublari, tavsiflovchi va etimologik tahlil usuli qo’llanildi. Tahlil qilishda zamonaviy ingliz tilidagi axborot texnologiyalari va ta’lim sohasiga oid atamalar, bundan tashqari ularning o’zbek tilidagi shakllari va muqobillaridan foydalanildi. Ilmiy izlanish bugungi kundagi zamonaviy olimlarning qiyosiy tilshunoslik va terminologiya sohasidagi asarlariga asoslangan holda yozildi.

Asosiy qism: O’zbek tilidagi zamonaviy terminologiyaning shakllanish jarayoni ikkita asosiy tendensiya orqali tavsiflanadi: to’g’ridan to’g’ri o’zgartirish kiritmasdan o’zlashtirish va milliy ekvivalentlar yaratish. Leksiko-semantik moslashuv: Axborot texnologiyasi sohasiga taalluqli ko’pgina IT atamalar o’zbek tiliga tarjimasiz kirib kelgan. Bunday atamalar faqatgina fonetik moslashuvdan o’tkazilgan. Misol tariqasida “server”, “browser”, “modem” so’zlari olinsa, ular o’zbek tilida ham o’z shaklini yo’qotmagan[6]. Ammo M. Norbo’tayeva (2025) ta’kidlaganidek, aniq tarmija qilishga erishish uchun chuqur semantik tahlil qilinishi shart bo’lgan so’zlar ham mavjud. Bunday so’zlarni faqat fonetik o’zgartirish orqali o’zlashtirib bo’lmaydi.

Tarjima va kalka usullarining birinchi bu to’liq kalka usuli[5]. Bu jarayonda atamadagi har bir so’z o’zining o’zbekcha ekvivalenti bilan almashtiriladi. Masalan, ingliz tilidagi “cloud computing” so’zi xuddi shu uslubdan foydalanilgan holda “bulutli hisoblash” ko’rinishida tarjima qilinadi. Ikkinchi usul esa transkripsiya va moslashuv usuli. Bu usulda so’zning bir qismi o’zberkchaga moslashtirib o’zgartiriladi, bir qismi esa xalqaro atamadagi ko’rinishini saqlab qoladi. Masalan, “kiberxavfsizlik” atamasining birinchi qismi tarjima jarayonida “kiber” xalqaro prefiksni saqlab qolgan holda, ikkinchi qismi o’zbekcha ekvivalent bilan o’zgartirilgan. Ingliz tilidagi maxsus atamalar va so’z birikmalari sintaktik tuzilish jihatidan ko’pincha ixcham bo’lishiga qaramay, o’zbek tiliga tarjima qilinganda ular murakkabroq ko’rinishga ega bo’lishi mumkin.

Tahlil va natijalar: Tahlil va natijalar shuni ko’rsatadiki, o’zbek tilida aynan texnologiya sohasida ingliz tilidagi terminlarga yuqori talab mavjud. Aksariyat bunday atamalarning (taxminan 60%)[1] milliy tilimizda qisa muqobillari yo’qligi sababli, ma’nosini saqlab qolish maqsadida to’g’ridan to’g’ri o’zlashtirilgan holda qabul qilinadi. Milliylik va madaniyatni aks ettiruvchi maqol va iboralardan[6] farqli ravishda zamonaviy texnik atamalar bir xillik va standartlashtirishga intiladi. Biugungi kundagi asosiy



muammo esa milliy yagona terminologik lug’atning mavjud emasligi bo’lib qolmoqda. Bu esa o’z navbatida ommaviy axborot vositalari va turli xil kitob, darsliklarda bir atamaning bir necha xil usulda qilingan tarjimasini uchratishga sabab bo’lmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, ingliz va o’zbek terminologiyasini qiyoslab o’rganish globallashuv va integratsiya sharoitida zamonaviy o’zbek tilining rivojlanish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi, deb aytilsa mubolag’a bo’lmaydi. Ingliz tilidagi terminlardan faol foydalanilishiga qaramay, o’zbek tili bu tushunchalarni o’zining grammatik va semantik me’yorlariga tayangan holda moslashtirib, o’zining leksik zahirasini boyitmoqda. Termin tiziming yanada takomillanishuviga electron lug’atlarni yaratish va yangi atamalarning to’g’ridan to’g’ri tarjima qilinishini nazorat qilish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Abduazizov, B. Terminologiya va tarjima nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2015.
2. Abdullev, A. O’zbek tilida axborot texnologiyalari terminologiyasining rivojlanishi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
3. Mieder, W. Proverbs: A Handbook -Greenword Press, 2004.
4. Norbo’tayeva, M. Ingliz va o’zbek tillarida IT terminologiyasining chog’ishtirma tadqiqi\ \ Journal of Century Innovations. – 2015.
5. Raxmatov, R. Tarjimashunoslik va texnologik terminologiya. Toshkent: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.
6. Ikromova A., Mamatova, D. Ingliz va o’zbek tillarida eng ko’p qo’llaniladigan maqol va matallarning chog’ishturma tahlili\ \ Advances in Science and Education. – 2026.